

ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” DOSTONLARIDA ABDURAHMON JOMIY TIMSOLI

Nilufar Tinchlikova

Mutaxassislik: 5A120101-Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)
1-bosqich

*Fayzi gadovu shoh aro muntashir,
Xizmatig'a shohu gado muftaxir.*
Alisher Navoiy

Annotatsiya: *Abdurahmon Jomiy buyuk shoir Alisher Navoiy hayotida ham ustoz, ham do'st, ham maslakdosh sifatidagi ulug' inson bo'lgan. “Xamsa” dostonlaridagi Jomiyga bag'ishlangan boblarda shogirdning ustoziga bo'lgan oliy munosabati namoyon bo'ladi*

Sharq mumtoz she'riyati dunyo badiiy tafakkurining o'z jozibasiga sohib, qudratli markazlaridan biri. Jahonga shuhrat taratgan ulug' shoir-san'atkorlarning aksariyati Sharq she'riyati namoyandalari edi. Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy ular davrasida alohida mavqe va e'tiborga ega hisoblanadi.

Hazrat Jomiyning ma'no duru gavharlari bilan to'lib-toshgan ijod xazinasini bizga nechog'lik qadrligi bo'lsa, uning Alisher Navoiy bilan do'stligi, ustoz-shogirdligi shu darajada e'tiborli va ehtiromlidir. Bu-xalqlar, adabiyotlar, ilm-fan, madaniyatlar tarixida nihoyatda siyrak uchraydigan hodisa. Jomiy va Navoiyga o'xshab dunyoqarashi – dunyoqarashiga, shaxsiyati – shaxsiyatiga, maslagi – maslagiga bog'lanib, ijodiyoti va mahorati o'zaro uyg'unlik kasb etgan ikki millat, ikki adabiyot vakilini tasavvurga keltirish qiyin. Asarlarida Navoiy Jomiy ta'rifida, Jomiy Navoiy madhida so'z yuritgan ekan, ularning har ikkalasi ham go'yo bir tafakkur iqlimida nafas olib, bir dard va shodlik gulshanida kezib ulug' iste'dod, mislsiz badiiy ixtirolarni sharaflayotganga o'xshaydi.

Ana shu buyuklik tufayli Alisher Navoiy hazrat Abdurahmon Jomiyning «sohibdavlati buzugvor.... sohib kamoli nubuvvat kirdor» deb, akademik Aziz Qayumov «nazm va tafakkur quyoshi», prof. R. Vohidov esa «Sharqning buyuk allomasi» deb ulug'laganlar.

Markaziy Osiyo milliy yuksalishining ikki yirik dahosi Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy va Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning katta madaniy, adabiy jarayon shakllanuvdagi faoliyatlari, ilmiy-adabiy hamkorliklari haqida so'z borganda kishi ko'z o'ngida oliy insoniy fazilatlardan bo'lmish vafo va sadoqat timsollari namoyon bo'ladi. O'z davrining yirik siyosatdonlari, mutafakkir allomalari, faylasuf donishmandlari va dilbar shoirlari bo'lmish bu ikki benazir insonni ulardagi yuksak salohiyat birlashtirib turar edi. Qalamlari qudrati siri ham ular qalblaridagi ma'rifat ziyosi, g'oyat go'zal ichki madaniyatlari bilan bog'liq edi. Ularni bir-biriga tortib turuvchi kuch nafaqat adabiy hamkorlik, balki komil ixlos, poklikka sadoqat, insonga nisbatan mehr-shafqat, nafosatga muhabbat va nazokatli tabiat edi.[1]

Ergash Ochilov shunday yozadi: „Abdurahmon Jomiy Navoiy uchun tariqatda-pir, adabiyotda – ustoz, hayotda-do'st maqomidagi ulug' inson edi. „Xamsa”ning barcha dostonlarida u o'z ustoziga maxsus bob bag'ishlaydi.”[2].

“Xamsa” dostonlaridagi Jomiyga bag'ishlangan boblarda Navoiyning piriga yuksak munosabati namoyon bo'ladi. K.Mullaxo'jayevning quyidagi fikrlari buni tasdiqlaydi: “Bu boblar “Hayrat ul-abror” dostonida 65, “Farhod va Shirin”da 34, “Layli va Majnun”da 40, “Sab'ayi sayyor” da 41, “Saddi Iskandariy”da 44 baytni tashkil etadi. Agar har bir dostonidagi har bir madhlar jamlansa kichik bir doston hajmini oladi. Ularning har birini alohida bir dostonning tarhi deb tasavvur etish ham mumkin. Bu madhlarni izchil,mukammal o'rganish Jomiyning suratu siyratini qayta yarata olishimizga,ayniqsa, botiniy olamini mukammal tasavvur etishimizga,asarlari va adabiy mahorati haqida kengroq ma'lumot olishimizga imkon yaratadi,zero, Jomiyning Navoiydan yaqinroq va yaxshiroq bilgan va uni asarlarida bu qadar to'laqonli ifodalab berolgan ijodkor bo'lmasa kerak”.

Hazrat Navoiy “Xamsa” ning “Hayrat ul-abror” dostonida esa ustozini ta'rifida shunday baytlarni bitadi:

*Zulmat etib, jam davoti aning,
Ma'ni o'lub obi hayoti aning.
Qatrasidin kimki bo'lub komyob,
Umri muabbad qilibon iktisob.
Nazmi aqolimi jahonni tutub,
Nasri dag'i kishvari jonni tutub,
Fayzi gadovu shah aro muntashir,
Xizmatig'a shohu gado muftaxir...[1]*

Misralar mazmunidan Abdurahmon Jomiy buyuk ijodkor bo'lishi bilan birga ulug' donishmand va mutafakkir shaxs bo'lganini anglaymiz.

“**Farhod va Shirin**” dostonining VII bobida Navoiy hazrat Jomiy g'oyat ulug'lab,yuksak ehtirom bilan tasvirlagan.

*Hazrati shayxul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (umrlari uzaysin)
madhidakim hayratqa muningdek ma'ni bodasining jomi aning himmati
mayxonasining suvchilaridin dam-badam to'ldi va aning duosi piymonasining
soqiylaridin labolab bo'ldi [1]*

*Iki pil o'lsa Xusrav yo Nizomiy,
Erur yuz ril chog'lig' ril Jomiy.*

Navoiy ustozlari iste'dodini taqqoslab, Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarning she'riyatdagi iqtidori ikki filcha bo'lsa, Jomiyning kuchi yuz filcha, tasavvuf bobida esa Zindapilning o'ziga teng, deya mubolag'ali ta'riflaydi.

*...Jahon yo'q, olami kubro de oni,
Jahonda maqsadi aqso de oni.*

Sen Jomiyning cheksiz bir jahon deb,uning kamolotini esa o'ziga o'xshagan yana bir dunyo deb bil.U o'zida jahon ichida jahondek kuch-qudrat paydo qilib,ikki dunyo ya'ni,u dunyo kishilarni ham hayratga soldi. Yo'q,uni “jahon” dema “eng ulug'

olam” deb ata, jahonda eng olis, oliy maqsad deb ata. Chunki kichik olamda nimayiki mavjud bo’lsa, ularning hammasini bu “ulug’ olam” o’zida mujassam etgan. Bu yerda inson va uning yuragi, qalbi mazmuniga ega bo’lib, uni kichik olam, tasavvufda esa bu dunyo ko’zda tutiladi.

Hazrat Navoiy Jomiyni dengizga, uning asarlarini dengizdagi durlarga, qalamini gavhar sochuvchi, ichi shakar bilan to’la nayshakarga o’xshatadi.

Navoiy kim muridur bandasidur,
Ipodat yo’lida afgandasidur.

Hamul gavhar bila ko’nglin yorutqil,
Hamul shakkar bila komin chuchutqil.

Kalomin ul guhardek ayla rangin,
Hadisin ul shakardek ayla shirin.

Ushbu baytlarda Navoiy Jomiya kamolat ko’zgusi bilan qaragani namoyon bo’ladi. Ustozi so’zlarini gavharga qiyoslab, ko’nglini yoritishini tilaydi.

Alisher Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiya juda katta hurmat bilan qaragan, o’z ijodiy faoliyatida ham, ijtimoiy ishlarida ham Jomiy bilan maslahatlashib turgan va ustoz fikrlariga amal qilgan

“**Saddi Iskandariy**” dostonining eng so’nggi bobida Navoiy buyuk ustoz - salafi bo’lmish Hazrat Jomiyni yuksak ehtirom bilan tilga oladi:

«Zo’rlar qatoriga kiraman deb, panjaga qo’l urish bilan, u panjadan o’z panjasiga ko’p shikastlar yetkazgan kimsalar ham bo’lgan, Haddan ortiq zo’r berib kuchayishlari natijasida ularning bilaklari tirsaklaridan chiqib ham ketgan». Bu bilan Navoiy ustozlarga tenglashmoq naqadar mushkul ekanligini izohlaydi.

«Har bir ochilmagan qulfnı ochishda buyuk kishilarning duosi kalit bo’la oladi».

«U kishining joyi xilvat emas, yuksak ostonani eslatar, o’zlari esa, xilvatda — yolg’iz o’tiruvchiga emas, Jabroil farishtaga o’xshar edilar. Uni [Jabroilni] muqaddas nur ravshan aylagan, ya’ni u nurdan yaratilgan bo’lsa, buning [Jomiyning] so’zlaridan muqaddas sirlar ayon bo’lar edi. Jabroilni eslatadigan darajada to’liq aql egasidir. Men shunday bir haramga mahram bo’ldimki, yo’q u haram emas, yorug’lik va poklik olami edi».

Keyingi baytda «Ularning bu yozganlari yuzaga chiqqanda, siyoh bilan yozilgan bu kabi qora-qura narsalarning olamda bo’lishiga hayratlanasan. Ularning yozganini kim o’qisa, xuddi qorong’i kechada qolgandek mashaqqatga tushadi. U shunday zulmatki, odam ichay desa, obi hayot yo’q, u shunday tunki, unda oftob nuridan nishona ham ko’rinmaydi. Unday shoirlar dunyoga eng muattar mushk sepdik, deb maqtanganlaridan ham mushklari ko’ngilni qora va ko’zni xira qiladi, xolos. Lekin bu o’rmonda ikkita mard sher (Nizomiy bilan Xusrav) bor bu dengiz ichida ikkita botir nahang ‘lib, bu o’rmonga kirish uchun xuddi o’shanday jangovar sheru, bu dengizga tushish uchun o’shanday dilovar nahang bo’lmoq kerak», deyiladi.

Bu dostonda jomiy hazratlari „Piri koshif“ - sirlarni kashf etuvchi bilimdon, „Piri ravshanzamir“ – ichki dunyosi pok inson deya ulug’lanadi.

«Asarim bir kema kabi ma'rifat daryosi (Jomiy)tomon yo'nalgach, ulug' dars o'z muborak qo'lini bu daftarlarga uzatdi», «Qanday yengki, uni osmonga tashlasa, ko'kning qiyshiq yuzini bukib yuborar edi» deyiladi.

XV asr ikkinchi yarmidagi ilmiy-adabiy muhitining ko'zga ko'ringan namoyandalari anchagina bo'lsa-da, Abdurahmon Jomiyning ham ustod, hamda naqshbandiyaning Xurosondagi murshidi sifatida alohida o'rni va maqomi bor.

Jomiy – shoir, adib, olim, musiqashunos, adabiyotshunos, muarrix, faylasuf, mutasavvif. Hazrat Jomiy keng qamrovli ijodiyotida Rudakiydan boshlab to Hofiz va Kamol Xo'jandiygacha bo'lgan so'z san'atkorlari an'alarini ijodiy davom ettirib, fors-tojik she'riyatini yangi pog'onaga ko'targan edi. Jomiydan keyin badiiy ijod tajribasini teran ilm va irfon, qoyaday sarbaland butun shaxsiyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin bo'lmay qolgandi.

Asrdosh va izdoshlarning Abdurahmon Jomiyga bergan ta'rif, tavsif va baholari bir joyga jamlansa, nainki o'z zamonida, undan keyingi davrlarda ham Jomiyga teng, Jomiyning joyini egallashga munosib Shaxs tavallud topmagan, degan xulosaga kelish shubhasizdir. Jomiy shu qadar benazir, shu darajada noyob shaxsiyat. Alisher Navoiy ustozining sha'ni-shavkatini ulug'lovchi mana bunday so'zlarni aytganda to'la haq edi:

*Yo Rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donishu fazl gavharining koni.
Kim aylading oni olam ahli joni,
Olam elig'a bu jonni tut arzoniy.*

O'z navbatida Jomiy ham Navoiy ijodi haqida ma'lumot qoldirgan. Jumladan, „Bahoriston“ asarining yettinchi ravzasi 39 nafar shoirga bag'ishlangan bo'lib, so'nggida Navoiyga yuksak ta'rif bergan. Navoiy haqida „Bizning zamonamiz bu sohibdavlatvujudi ila musharrafdir. U o'z martabasi, ulug'ligi va shohga yaqinligi va shuningdek Olloh ato etgan va o'qish o'rganish bilan orttirilgan ilmu donishi va aqlu zakovati bilan she'rlari husni kamoli uchun har qanday maqtovdan yuqori tursa-da, u o'zini past tutib, she'r ahli jamoasiga qo'shildi va boshqalarga ham pardani oradan ko'tarib, she'riyat yo'lini ochib berdi, deyiladi.

Abdurahmon Jomiy hayoti va ijodiyoti dunyoning qator mamlakatlarida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan, asarlaridan namunalar Abdurahmon Jomiy ijodiyoti muhoblari taniqli olimlar tomonidan tadqiq etildi. O'zbek kitobxoni necha o'n yillardan buyon Jomiy adabiy merosidan saralangan lirik she'rlar, ayrim doston va nasriy asarlarni ona tilida o'qishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi bu ikki buyuk insonning nafaqat ijodi bilan balki ular o'rtasidagi yuksak ehtirom va samimiyatga yo'g'rilgan o'zaro do'stlik, hammaslaklik munosabatlari yosh avlodga har tomonlama o'rnak bo'lishga arziydi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. Йигирма жилдлик. 7-жилд. - Тошкент. 1991. 53-бет.

2. Фаррухбек Олим. „Хамсат ул – мутахаййирин“ да Жомий сиймоси. // О'zbek tili va adabiyoti, 201-yil, 2-son, 54-bet.

3.Дилором Салохий.Ижодий хамкорлик кирралари. // O'zbek tili va adabiyoti,2012-yil, 1-son, 14-bet.

Ilmiy rahbar: _____ f.f.d.,prof. M.Q.Muhiddinov